



## INGLIZ VA O'ZBEK BADIY ADABIYOTIDA HURMAT KONSEPTINING VOQELANISHI

**Yusupova Farangiz Adhamjon qizi**

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti Xorijiy til  
va adabiyoti ingliz tili birinchi fakulteti talabasi

Telefon raqam: +998910010740

**Yuldashev Akmal Gulyamjonovich**

Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari doktori Ingliz  
tili birinchi fakulteti dekani

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8129041>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hurmat konseptining ingliz va o'zbek badiiy adabiyotidagi xususiyatlari muhokama etilgan. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida HURMAT konseptini tahlil etishda, ushbu tillarda mavjud, HURMAT konseptining mavjud yoki mavjud emasligi, uning o'рни, tarjima hodisasi, shu jumladan, muloqot hodisasi ekanligini tahlil qilib o'rganish ifodalangan.

**Kalit so'zlar:** konsepti, hurmat-izzat, maktub, ko'plik va birlik tushunchalari, odob-axloq, konsepsiya,

HURMAT konsepti tilshunoslik va adabiyotshunoslik oralig'ida shakllangan konsepsiya hisoblanadi.

HURMAT konsepti bugungi kunda ingliz va o'zbek tillari badiiy asarlarda bir necha bor tahlil etilgan. O'zbek millatida HURMAT jamiyatning asosiy qadriyatlaridan biri deb hisoblashadi, chunki bu odamlarga birgalikda totuvlikda yashashga imkon beradi.

O'zbek adabiyotida har doim so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida muloqot o'zaro hurmat va izzat shakllarini ifodalaydigan so'zlar ishlatiladi.

Masalan so'zlovchining yoki tinglovchining yoshi katta bo'lsa unga murojaat qilganda "siz" deb murojaat qilinadi; *ahvolingiz yaxshimi, qayerliksiz.*

Shuningdek hurmat yuzasidan otlarga *-lar* ko'plik qo'shimchasi ham qo'shiladi.

Masalan; *Dadamlar bugun ishdan vaqtlı keldilar.* Bu yerda *-lar* qo'shimchasi farzandni o'z otasiga nisbatan yuksak hurmatdaligini ko'rsatib beradi.

Ingliz tilida "siz" faqat "sen" kelishigining ko'pligi uchun ifodalanadi. Shuningdek birlikda ham ko'plikda ham bir xil "you" shaklida ishlatiladi. Ko'plik yoki birlik ishlatilayotganini matn mazmuniga qarab bilib olish mumkin.

O'zbek adabiyotidan Abdulla Qodiriy qalamiga mansub "O'tkan kunlar" asari, ingliz adabiyotidan esa Jane Ostin tomonidan yozilgan "Pride and Prejudice" (Andisha va g'urur) asarlarida HURMAT konseptining qanday ifodalanishini ko'rib chiqamiz. Asarlarni qiyoslash uchun ikki asarda ham qiz farzand obrazini





tahlil uchun tanlab olamiz. “O’tkan kunlar ” asaridan Kumush obrazi va “Pride and Prejudice ” asaridan Elizabet Bennit obrazini tanlaymiz.

*Qushbegi maktubni ikkinchi martaba o’qub chiqib xotinga qaradi:*

*— O’lturingiz, singlim, — dedi.*

*Xotin o’ltirmakchi bo’lg’an edi paranji ichidan uning atlas ko’ylaklari va nafis oq qo’llari ko’rinib ketdi. Qushbegi yer ostidan xotinni kuzatdida, qo’lidag’i maktubning orqa, o’ngini tekshirib qaradi. Maktub anchagina uring’an, qog’ozi shaloqlang’an edi. So’ngra xotindan so’radi:*

*— Qutidor bilan Otabekning kimi bo’lasiz, singlim?*

*— Qutidorning qizi, Otabekning xotini.*

*Bu so’zni eshitkuchi a’yon bir-birlariga qarashib qo’yidilar.*

*— Buni nega ilgariroq olib kelmadingiz?*

*Qushbegining bu savolidan Kumushbibi qo’rqinch bir ma’noni angladi. Go’yo «ish o’tkan so’ng kelibsan» degandek tushungan edi. Shuning uchun ul titroq bir ovoz bilan so’radi:*

*— Endi yaramaydimi?*

*— Yo’q, yo’q, qizim, — dedi qushbegi, — men nega kecha va o’tkan kunlarda olib kelmadingiz demakchiman.*

*Kumushbibi bir entikib qo’ydi va o’zini to’xtatib:*

*— O’zim ham bu maktubni shu bukun ko’rdim, — dedi.*

*— Maktubni ilgari ko’rmagan edingizmi?*

*— Ko’rmagan edim.*

*— Maktub qayerda ekan?*

*— Uning eski kamzulining cho’ntagida ekan.*

*Shu gapdan keyin qushbegi maktubni o’ziga yaqin o’lturg’an Azim ponsad boshig’a uzatdi:*

*— Siz ham o’qub ko’ring-chi, ponsad, — dedi va Kumushdan so’radi, — o’qug’anmisiz?*

*— O’qug’anman.*

*— Eringizning hukumatka qarshi harakatini ilgari ham bilar edingizmi?*

*— Qanaqa harakatini?*

*— Masalan, biz otangiz bilan eringizni nima uchun osmoqchi bo’ldiq?*

*— Haqsiz, gunohsiz!*

*— Bu maktub bilan eringizni o’limdan qutila olishini sizga kim aytdi?*

*— O’zim bildim.*

*— Bo’lmasa ilgari eringizning o’sha harakatini ham bilar ekansiz-da?*





— *Yo'q, taqsir, — dedi Kumush. Qushbегining maqsadig'a endi tushunib olgan edi, — men onam bilan to shu kungacha ularning nima gunoh bilan qamalg'anlarini bilalmay hasratda edik. Faqat bu kun kishilarning og'zidan eshitib bildikki, siz uni Toshkanddan isyon chiqarg'ali kelguchi, deb gunohkor qilur ekansiz. Onam bilan manim baxtinga kutmagan joydan mo'jizadek bu maktub topildi-da, men xizmatingizga yugirdim...*

Yuqoridagi suhbatdan Kumushning begona erkak kishilar qarshisida 6zini qanday tutishi va qushbegiga bo'lgan hurmatni ko'rishimiz mumkin.

— *Qutidorning qizi, Otabekning xotini.*

*Bu so'zni eshitkuchi a'yon bir-birlariga qarashib qo'ydilar.*

— *Buni nega ilgariroq olib kelmadingiz?*

*Qushbегining bu savolidan Kumushbibi qo'rqinch bir ma'noni angladi. Go'yo «ish o'tkan so'ng kelibsan» degandek tushungan edi. Shuning uchun ul titroq bir ovoz bilan so'radi:*

— *Endi yaramaydimi?*

Ushbu jumlarlar orqali Kumushning ichki q6rquvga qaramasdan erkaklar qarshisida odob saqlashi yaqqol ko'rinib turibdi.

— *Yo'q, yo'q, qizim, — dedi qushbegi, — men nega kecha va o'tkan kunlarda olib kelmadingiz demakchiman.*

Aynan qushbегining Kumushga nisbatan “— *Yo'q, yo'q, qizim*” degandagi “*qizim*” so'zi ham yoshi katta kishining o'zidan kichik ayolga nisbatan HURMAT konseptining voqelanishini ko'rsatadi. Bundan tashqari Kumush “— *Qutidorning qizi, Otabekning xotini*” jumlasida *Otabek* ismini tilga oladi, suhbat davomida esa bir necha marotaba *Otabek* ismi o'rniga *u* kishilik olmoshini ishlatganini ko'rish mumkin. Bu ham ayolning o'z turmush o'rtog'iga nisbatan hurmatini ifodalaydi.

Endi e'tiborimizni Elizabet va onasining suhbatiga qaratsak;

- *But my sister, based on her nature, is helping as much as she can. Is he so insensible that he does not perceive what is visible!*

- *Eliza, don't forget that he doesn't know Jane's character as much as you do.*

- *If a woman likes a man and doesn't try to hide it... after all, she should feel it!*

- *Maybe if he spends a lot of time with a girl. But even though Bingley and Jane see each other often, they can't keep talking to each other, so Jane must make the most of every moment she has with him*

Jane o'z fikrini oshkora bayon etyapdi, “*Jane must make the most of every moment she has with him*” jumlasida orqali opasining taqdirini o'zicha belgilashini onasiga erkin fikrlar orqali ko'rsatyapdi. Bu suhbatda ingliz oilasida





tarbiyalangan qizning qanchalik erkin fikrlashi va o'z fikrida qat'iyliги ko'rsatib berilgan.

*Kumushbibi ikki xatni qator ushlab otasig'a ko'rsatdi:*

— *Bularga qarangiz, ota! Bizni nechog'liq g'aflat bosqan ekan, — dedi.*

*Qutidor qizining maqsadig'a tushunib ikki turli qo'lni darrav payqab oldi:*

— *Vijdonsiz, iblis, imonsiz, kofir, — deb qo'ydi.*

*Kumushbibi Otabekning xatini buklab cho'nchagiga soldi-da, soxta xatni sham'ga tutib yondirar ekan, otasidan so'radi.*

— *Shu voqi'adan so'ng kuyavingiz aniq kelganmi edi?*

— *Kelgan edi, qizim.*

— *Bechorani nega haydadingizda, nega meni, loaqal oyimni bu kelishdan xabardor qilmadingiz?*

Yuqoridagi misolda Kumush va otasi o'rtasidagi suhbatdan parcha olingan. — *Bularga qarangiz, ota! "qarangiz" so'zidagi -iz qo'shimchasi ham hurmat kategoryasidagi qo'shimchalardan biri, so'zdagi grammatik ma'no aslida ko'plikni ifodalasada leksik ma'no hurmatni ifodalab beryapdi.*

Mister Darsi va Elizabet suhbatidan olingan parchaga diqqatimizni qaratsak;


*We lived in London with my brother Gardinemiki. There, a young man fell in love with Jane. We thought that before we left London, he might ask about our daughter's whereabouts. True, this did not happen. He must have thought Jane was still too young. But he wrote such wonderful poems for Jane...*

*"And that's the end of this adventure," added Elizabeth hastily. - I don't think this is the only interest that ended like that. I wonder who was the first to say that poetry brings love?*

*- And I believe that love can enjoy poetry, - said Mr. Darcy. - Yes, if love is healthy, strong and true. A love that is already established can enjoy anything. But if it is just a liking, after a couple of lines of poetry, there will be no trace of it.*

Suhbatdagi *"And that's the end of this adventure," added Elizabeth hastily* so'zlarida Elizabetning Janob Darsi va Bengli xonim o'rtasidagi suhbatni o'z fikrini bayon qilish uchun qo'pol tarzda bo'lishi aks ettirilgan.

O'zbek adabiyotidan olingan asarda o'zbek madaniyatida ota-onaning ko'ziga tik qaramaslik, ota-onadan oldin gapirmaslik va ulardan oldin qaysidir ishni ruxsatsiz bajarmaslik, ayol kishi erkak kishining gapini bo'lib uning fikriga qarshi chiqmaslik HURMAT ma'nosini ifodashi ko'rsatilgan.





Jane Ostin asarida Elizabet obrazi orqali erkinlikka targ'ib etish va kezi kelganda o'zgalar suhbatini buzish orqali o'z fikrini bayon qilish ko'rsatib berilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki o'zbek millatida HURMAT konsepti muomala madaniyati bilan bilan boshqa millatlardan ajralib turadi. Yuqorida ko'rib chiqilgan ikki asar tahlili natijasi shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalqi kattalarga ham kichiklarga ham birdek hurmatda bo'lishga katta ahamiyat qaratiladi. Ingliz adabiyotida HURMAT yoshi katta yoki keksa kishilarga nisbatan odob-axloq normalaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. O'zbek adabiyotini o'qib o'rganish orqali ham yoshlarni HURMAT konseptiga o'rgatib tarbiyalash mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Graham J., Haidt J., Koleva S., Motyl M., Iyer R., Wojcik S. Axloqiy asoslar nazariyasi: axloqiy plyuralizmning pragmatik asoslari. 2013.
2. Richardson D. S, Spivey M. J., Edelman S., Neapol A. D. Til fazoviy: aniq va mavhum fe'llarning tasviriy sxemalari uchun eksperimental dalillar.2001.
3. Zulfiyeva Y.-lar affiksining so'z tarkibidagi qo'llanish xususiyatlari// O'zbek tili va adabiyoti. -T.: 1972. 5 -son.
4. Zikrillayev G'.Fe'lning shaxs,son va hurmat kategoriyalari sistemasi.- Toshkent:Fan,1990 -163b.
5. Abdulla Qodiriy 'O'tkan kunlar' [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) 2008-yil
6. Jane Ostin 'Pride and Prejudice'. 'Yangi asr avlodi' 2014-yil

